

IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR VA ULARNING
TASNIFI

Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li

O‘qtuvchisi

Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li

Toshkent moliya instituti O‘qtuvchisi

Annotatsiya: *Maqolada iqtisodiy o‘shni mazmuni, vazifalari va omillarini tizimli tushunishning zarurligi, afzalliklari va yangi shartlari, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘shni ta‘minlash davlat siyosati tadbirlari tizimidagi tub o‘zgarishlarning nazariy asoslari va sabablari, ularning omillari ko‘rib chiqilgan*

Tayanch iboralar: *iqtisodiy o‘sh, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o‘sh maqsadlari, iqtisodiy o‘sh turlari, iqtisodiy o‘sh samaradorligi, iqtisodiy o‘sh ziddiyatlari, iqtisodiy o‘sh ko‘rsatkichlari, iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirish usullari va vositalari*

KIRISH

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi⁴⁷da makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sh sur‘atlarini saqlab qolish mamlakat iqtisodiyotini o‘rta muddatli davrda barqaror rivojlantirishning zaruriy sharti ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Iqtisodiy o‘sh muammolari jamiyat taraqqiyotining o‘ta ahamiyatli va shu sababli iqtisodiyot ilmining eng dolzarb va hakli ravishda ko‘p tadqiqotchilarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga jalb etayotgan birinchi darajali muammolardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, hozirgi kunda iqtisodiy o‘sh modellari uch asosiy guruhga ajratiladi: keynscha va neokeynscha iqtisodiy o‘sh modellari, neoklassik iqtisodiy o‘sh modellari, hozirgi zamonaviy iqtisodiy o‘sh modellari⁴⁸.

Iqtisodiy o‘sh zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hajmining real ko‘payib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘shini tushuniladi.

Iqtisodiy o‘shning hozirgi turi XVIII asrning yarmida Angliyada sanoat revolyusiyasi natijasida aniqlangan. Bu davrda aholining real daromadlari 10 baravar

⁴⁷Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги фармонида илова//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – 33-б.

⁴⁸Ишмухаммедов А.Э., Жумаев З.А., Жумаев Қ.Х. Макроиқтисодиёт (ўқув қўлланма) – Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2005. 169 б.

oshgan, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lgan. XX asr boshlariga qadar iqtisodiy o'sish haqidagi ma'lumotlar to'liq mavjud emas edi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasining asoschisi XX asr boshlarida faoliyat yuritgan iqtisodchi olim Y.Shumpetter hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish nazariyasiga Saymon Kuznes, Fernan Brodel, Teodor Shuls, Geri Bekker, Maykl Porter, Nikolay Kondratev va boshqalar o'z hissalarini qo'shgan. Iqtisodchi olim Angus Medison real YaIM va iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholash sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borgan⁴⁹.

Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, inson tub manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, aholi turmush darajasi, sifati va farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi, uning iqtisodiy bazisi hisoblanadi.

Bugungi kunda maxsus iqtisodiy adabiyotlarda va kundalik matbuotda iqtisodiy taraqqiyot (rivojlanish) va iqtisodiy o'sish tushunchalarini birday tushunchalar deb qarash yuzasidan turlicha fikrlar bildirilayotir.

Mualliflarning bir guruhi mazkur tushunchalarni sinonim tushunchalar sifatida talqin qilmoqdalar⁵⁰.

Mualliflarning boshqa bir guruhi esa buning butunlay aksini qo'llab fikr bildirishayotir⁵¹.

Ayrim iqtisodchilar yuqoridagi ikki qarashdan ham farqli munosabatlarini izohlashmoqda. Masalan, A.E.Kisova va T.D. Romaşenkolar fikricha, iqtisodiy taraqqiyot iqtisodiy o'sishning o'ziga xos turi hisoblanadi: "o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish – shunday iqtisodiy o'sishdirki, u inson o'zining, uning imkoniyatining rivojlanishini ta'minlaydi"⁵².

Bunda ko'pchilik mualliflar iqtisodiy o'sishni "ijtimoiy-iqtisodiy tizim gullab-yashnashi uchun zarur moddiy asosni yaratishning bosh maqsadi va mezoni sifatida" tadqiq etish zarurligini yakdil qo'llab-quvvatlamodalar⁵³.

Boshqa tomondan esa, ayrim tadqiqotchilar "iqtisodiy o'sish ayrim ijtimoiy muammolarni hal eta olmasligi"ni ta'kidlashmoqda⁵⁴.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti taraqqiyotining hozirgi sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim sharti sifatida iqtisodiy o'sishni nafaqat miqdor jihatdan, balki sifat jihatidan ham ta'minlanishining omillari samarali tizimini shakllantirish maydonga chiqadi.

⁴⁹ Джамалов Х.Н. К вопросу методов оценки финансовой устойчивости малого бизнеса и её факторов//Ученый XXI века . 2020. № 3-2 (62), с.50-59 .

⁵⁰ Djmalov Kh.N. Role and functions of the estimation of the business in the system of financial management// Public finance// Paris, 2010 year may, 22-28 p. Лоскутова М. В. Процесс глобализации как детерминанта экономического роста национального хозяйства / Социально-экономические явления и процессы. 2012. № 12 (46). С. 185-193; Мануэль Альмодовар-Гонсалес, Антонио Фернандес-Портильо, Хуан Карлос Диас-Касеро Предпринимательская деятельность и экономический рост. Многограновой анализ // Европейское исследование по менеджменту и экономике бизнеса №26 (2020) с. 9–17 (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

⁵¹ Некипелов А.Д. Фискальный выбор экономической стратегии //Свободная мысль-XXI. 2018. №9.с.56-69; Плеханова А. Ф., Иванов А. А., Иванова Н. Д., Колесов К. И. Стратегические бизнес-процессы / Современные проблемы науки и образования. 2014. № 3. С. 349-355; Валиев Б. "Иқтисодий ўсиш назариясининг концептуал ёндашувлари. Biznes-Эксперт, 2014 йил № 1-сон, 18-б.

⁵² Кисова А. Е., Ромашенко Т. Д. Концептуальная модель гуманизации экономического роста / Социально-экономические явления и процессы. 2011. № 5-6 (27-28). С. 110-115.

⁵³ Лоскутова М. В. Процесс глобализации как детерминанта экономического роста национального хозяйства / Социально-экономические явления и процессы. 2012. № 12 (46). С. 185-193; Горюнова Н. Н. Экономический рост как фактор экономического развития / Теория и практика общественного развития. 2013. № 7. С. 183-185.

⁵⁴ Некипелов А.Д. Фискальный выбор экономической стратегии //Свободная мысль-XXI. 2018. №9.с.56-69

Bunday tizimni aniqlashda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining nazariy asoslari va umumiy qonuniyatlari bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish holati xususiyatlarini, iqtisodiy o'sish imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga oluvchi o'ziga xos xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

Iqtisodiy o'sishning omillarini aniqlash uning mazmuni va tabiatini to'liq ochib berish orqali ta'minlanadi. Iqtisodiy o'sishning mazmuniga yondoshuvlarning tahlili ko'rsatishicha, uni tushunish va talqin etishga birday yondoshuv yo'q. Umumiy tarzda, iqtisodiy o'sish mohiyatini aniqlashda uch xil yo'nalishdagi qarashlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish tushunchalari o'zaro nisbati orqali;
- iqtisodiy o'sishning miqdoriy va sifat jihatdan aniqlanishi (ifodasi) orqali;
- iqtisodiy o'sishni davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi sifatida qarash orqali.

"Iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalarini qo'llashning ko'lami va holatlaridan qat'iy-nazar ularni aniqlash va ular o'zaro bog'liqligini ifodalashga umumiy ilmiy mushohada etish kuzatilmayotir. Tadqiqotchilarning bir guruhi⁵⁵ mazkur tushunchalarni birday mazmunni ifoda etishini ta'kidlab, ularni sinonim tushunchalar sifatida talqin etishsa, ularning boshqalari⁵⁶ mazkur tushunchalarni mustaqil iqtisodiy kategoriyalar sifatida qarab ularni turli mazmunga ega deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish bir-birini taqozo etuvchi va to'ldiruvchi tushunchalardir: iqtisodiy o'sish milliy iqtisodiyotning amal qilishi va uning tarkibi sifat o'zgarishlariga olib keluvchi "sezilarli tarkibiy kuch" bo'lishi, ya'ni rivojlanishda sakrashga asos bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanish, o'z navbatida "ma'lum cheklovlarni olib tashlash orqali" iqtisodiy o'sish sur'atlarini kuchaytirishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashga yondoshuvlarda ham yagonalilik yo'q. Ayrim iqtisodchilar⁵⁷ "iqtisodiy o'sish"ni miqdoriy tartibdagi kategoriya deb hisoblasalar, boshqalari⁵⁸ esa uni nafaqat miqdoriy, balki shu bilan birga sifat jihatidan ham aniqlashtirish lozimligini ta'kidlashadi.

TAHLIL VA NATIJALAR:

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, vazifalari va omillari tizimini iqtisodiy sistemologiya qoidalari asosida o'rganish uni bir vaqtning o'zida uch darajadagi munosabat majmui sifatida qarashni talab etadi⁵⁹ (1- rasm).


⁵⁵ Масалан, Батраков А.А. Стимулирование экономического роста на основе бюджетно-налогового регулирования. Авт.дис.на соиск.уч.степ.к.э.н М.:2010.с.12

⁵⁶ Мурадян О.В. Влияние государственной бюджетно-налоговой политики на экономический рост страны в условиях переходной экономики. Авт.дис.на соиск.уч.степ.к.э.н М.:2013.с.7

⁵⁷ Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Авт.дис.на соиск.уч.степ.к.э.н М.:2008.с.16

⁵⁸ Калинина И.Л.Формирование и реализация эффективной фискальной политики, стимулирующей экономический рост. Авт.дис.на соиск.уч.степ.к.э.н М.:2005.с.15

⁵⁹ Аллаяров С.Р. Systemal understanding the insight, tasks and factors of economic growth, Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA), Oct.-Dec. 20 Vol. 10, No.04, pp 56-65, SJIF 7.201 & GIF 0.626, ISSN-2249-9512



1-расм. Иқтисодий ўсishнинг мазмуни, вазифалари ва омилларини тизimli тушуниш ва таддик этиш *

“Iqtisodiy o’sish” tushunchasining mazmunini tizimli tarzda tushunishning quyidagi jihatlarini ajratib ko’rsatish lozim:

a) iqtisodiy o’sish maqsadlari. Iqtisodiy o’sish jarayoni tahlilining vaqt doirasidagi cheklanganligidan kelib chiqib, iqtisodiy o’sish maqsadining ikki darajasini farqlash zarur: asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning o’zgarishi va aholi turmush darajasining o’zgarishi. Iqtisodiy o’sish uzoq muddatli maqsadi amalga oshirilishining muhim sharti sifatida iqtisodiyot barcha sub’ektlarining yaxlit tarzda rivojlanishi, ular har biri tomonidan ma’lum strategik maqsadlarga erishishning ta’minlanishi maydonga chiqadi;

b) iqtisodiy o’sish turi. Ishlab chiqarish omillarining mutanosibligi va o’zaro harakati iqtisodiy o’sishning ekstensiv va intensiv turlarini belgilaydi;

v) iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlari (o’sish statistikasi). Iqtisodiy o’sish jarayoni miqdoriy va sifat ko’rsatkichlari orqali xususiyatlanadi. Iqtisodiy o’sishning miqdoriy ko’rsatkichlariga yalpi ichki mahsulot YaIM (YaMM) o’sish sur’ati, jon boshiga to’g’ri keluvchi YaIM (YaMM)ning o’sish sur’ati, iqtisodiyot tarmoqlari bo’yicha ishlab chiqarish hajmining o’sish sur’atlari, iqtisodiy samaradorlik (mehnat unumdorligi) ko’rsatkichlari va boshqalar. O’sishning yakunlari turmush darajasi va sifati ko’rsatkichlariga ta’sir ko’rsatadi;

g) iqtisodiy o’sish samaradorligi. Faqat ishlab chiqarish samaradorligi o’sishiga va uning hajmi oshishiga asoslangan iqtisodiy o’sishgina jamiyatning o’sib borayotgan ehtiyojlarining qondirilishini ta’minlaydi;

d) iqtisodiy o’sish ziddiyatlari. YaIMning absolyut va nisbiy ko’rsatkichlarda o’sishi hali turmush darajasi va sifatining yaxshilanishiga olib kelavermaydi va bunga iqtisodiy o’sish ziddiyatlari to’sqinlik qiladi: ekologik ziddiyat (atrof muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi) va ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi (daromadlar taqsimotidagi notenglik, mehnatning o’ta intensivlashuvi va h.k.);

ye) iqtisodiy o'sish omillari tizimi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sish omillariga iqtisodiy o'sishning xususiyati, jihatlari, tur(tip) lari va dinamikasini aniqlovchi sabab-oqibat hodisalari, zarur sharoitlar kiradi. Iqtisodiy o'sish omillari o'zaro bog'liqdir, ma'lum ma'noda bir-biri bilan kelishgan holda amal qiladi. Mazkur holatlar iqtisodiy o'sish omillari majmui ma'lum darajadagi tashkiliy tizimdan iborat ekanligini, uning elementlari o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bog'liqlikda faoliyat yuritadilar.

Tadqiq etilayotgan iqtisodiy o'sish omillari tizimi turli usullar yordamida turkumlanishi mumkin. U yoki bu omillar bog'liqligi va munosabatlari xususiyatiga ko'ra tizim elementlari turlicha bo'lishi mumkinki, bu narsa tizimning ko'p o'lchamliligini nazarda tutadi. Bunday mezonlar sifatida iqtisodiy o'sishning u yoki bu tasnifiy belgilari maydonga chiqishi mumkin. Iqtisodiy o'sish omillarini turli tasnifiy belgilariga qarab tasniflash ularning tabiati, mohiyati va farq qiluvchi xususiyatlarini yanada to'laroq o'rganishga imkon beradi. Iqtisodiy o'sish omillarini turkumlashning birmuncha keng tarqalgan tasnifi quyidagicha: to'g'ri va egri, ekstensiv va intensiv; boshqariladigan va boshqarilmaydigan; bozor, davlat va ichki ishlab chiqarish; iqtisodiy va noiqtisodiy; almashinadigan va to'ldiruvchi va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotini tahlil qilishni iqtisodiy o'sish modellari orqali amalga oshirish samarali hisoblanadi. Masalan, iqtisodiy o'sish orqali iqtisodiyotni tahlil qilish va prognozlashtirish, mamlakatning kapital bilan qurollanganlik darajasi, iste'molni maksimal qondirish va shu orqali jamg'arma normasini "oltin qoida" darajasida ushlab turish mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini oshirish va istiqboldagi rejalarni tuzishda yordam beradi. Shu bilan birga, boshqa iqtisodiy o'sish modellarini ham iqtisodiyotni tahlil qilish, baholash va prognozlashda qo'llash mumkin.

Iqtisodiy o'sish turli nuqtai-nazarlar orqali o'rganilishi sababli, uning intensiv va ekstensiv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (2-rasm).

Iqtisodiy o'sish turlari	
Ekstensiv iqtisodiy o'sish	Intensiv iqtisodiy o'sish
Ishlab chiqarish omillari miqdorini avvalgi texnikaviy darajani o'zgartirmasdan oshirish	Ishlab chiqarish omillari sifatini takomillashtirish
Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligi oshishining yo'qligi	Ishchilar chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining oshishi
Ishchilar sonining oshishi	Ishchilar malakasining oshishi
Kapital qo'yilmalarning oshishi	Tejamkorlik mexanizmi
Ishlayotgan xom-ashyo hajmining oshishi	Ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalanish
Mahsulotlar tarkibiy tuzilishining o'zgarmasligi	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning usullarini takomillashtirish
Tabiat resurslaridan nooqilona foydalanish	Mahsulotlar assortimentini kengaytirish va sifatini oshirish
Iqtisodiy inqirozning muqarrarligi	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

2-rasm. Iqtisodiy o'sish turlarining tavsifi⁶⁰

Ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo'shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarmasdan qoladi. Intensiv iqtisodiy o'sish esa ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanib mehnat unumdorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samara pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi⁶¹.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sish omillarini tasniflashning yuqorida keltirilgan mezonlarini quyidagilar bilan to'ldirish lozim. Birinchidan, iqtisodiy o'sish omillarini ularning iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatishi xususiyatiga ko'ra tizimlashtirish. Ushbu yondoshuvga asosan, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va uni ushlab turuvchi, pasaytiruvchi omillar o'rganiladi. Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish omillari ulardan foydalanish darajasiga qarab, foydalanilayotgan, zahiradagi va potensial turlariga turkumlanadi.

Iqtisodiy o'sish omillari tizimini aniqlash – iqtisodiy o'sish barcha omillarining iqtisodiy o'sishga ta'sirining yo'nalishlari, xususiyati va ta'sir ko'rsatish darajasini o'rganishni talab etuvchi murakkab jarayondir. Amaliyotda iqtisodiy o'sish barcha omillarini qamrab oluvchi tizimni yaratish ham texnik murakkabliklar tufayli, ham sezilarli darajadagi sub'ektivizm mavjudligi bois cheklangandir. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ma'lum zamon va makon doirasida iqtisodiy o'sish omillarining barchasi emas, balki ularning ayrim majmui ta'siri sezilarli bo'ladi. Shu boisdan tahlil jarayoni iqtisodiy o'sishga eng salmoqli ta'sir ko'rsatgan omillar majmui (iqtisodiy o'sishning asosiy omillari) bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi zamon sharoitida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish barqarorligi quyidagilarni talab etadi:

Birinchidan, aholi keng qatlamlari ehtiyojini yanada to'laroq qondirishni va resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni ta'minlovchi, iqtisodiyot sektorlari o'rtasidagi maqbul nisbatni ko'zda tutuvchi proporsionallik.

Ikkinchidan, atrof muhit holatini, ijtimoiy muammolarni va xalqaro aloqalar holatini hisobga olinishi.

Va nihoyat, barqaror iqtisodiy o'sish bir tomondan, uni ta'minlashning zaminlaridan, boshqa tomondan esa, bu sohadagi cheklovlardan kelib chiqali.

Qo'yilgan maqsadga erishilishi darajasi iqtisodiy o'sish omillari tizimining miqdoriy va sifat mezonlari samaradorligi bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sish omillari tizimining miqdoriy mezonni samaradorligi sifatida YaIM barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi maydonga chiqishi mumkin.

⁶⁰ Аллаяров С.П. Systemal understanding the insight, tasks and factors of economic growth, Journal of Management Value & Ethics (A quarterly Publication of GMA), Oct.-Dec. 20 Vol. 10, No.04, pp 56-65, SJIF 7.201 & GIF 0.626, ISSN-2249-9512

⁶¹ Валиев Б. "Иқтисодий ўсиш назариясининг концептуал ёндашувлари. Biznes-Эксперт, 2014 йил № 1-сон, 186.

O'zbekistonda mamlakatni o'rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish dasturini izchil amalga oshirishni davom ettirish natijasida 2019 yilda iqtisodiy o'sishning barqaror va yuqori sur'atlarini saqlab qolish va makroiqtisodiy muvozanat, aholi hayot darajasi va sifati oshishi ta'minlanmoqda. 2019 yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 5,5 foiz o'sdi. Sanoat mahsuloti hajmlari – 6,4 foiz, qurilish-pudrat ishlari – 11,8 foiz, chakana savdo aylanmasi – 7,9 foiz, xizmatlar – 6,1 foiz o'sdi. Fiskal balans defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3,1 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini ta'minlandi. Inflyatsiya darajasi prognoz parametrlaridan oshmadi va 15,5 foizni tashkil etdi⁶².

Jahon hamjamiyatidagi egallab turgan iqtisodiy mavqeyini saqlash va yaxshilash strategiyasida, jumladan "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi"da, turli rivojlanish ssenariylari va xalqaro reyting baholovchi agentliklar bashoratlariga ko'ra, mamlakatimizda YaIMning yillik o'sish sur'atlari 6%dan 7-8%gacha oshirilishi lozimligi ta'kidlanmoqda.

Iqtisodiy o'sish omillari tizimining sifat mezoni tavsifi aholi turmush sharoitining o'sishi, aholi o'rtasida tabaqalashuvning kamayishi, o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi, atrof-muhitning yaxshilanishi, iqtisodiyot raqobatbardoshligining o'sishi va h.k. larda aks etadi.

Ehtiyojlarning qondirilishi darajasi va yuqori samara olish maqsadida mavjud resurslardan oqilona foydalanish – iqtisodiy o'sish omillari tizimini baholashning asosini tashkil etadi. Milliy iqtisodiyot o'sishi omillari tizimining amaldagi holatini baholash shunday xulosa qilishga asos bo'ladiki, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishning miqdoriy jihati ta'minlanayotir. Erishilgan iqtisodiy o'sishning sifat tavsifi uni ta'minlovchi omillar tizimi samaradorligining hali ancha past darajada ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotini keng qamrovli modernizatsiyalash tadbirlari amalga oshirilishi natijasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishmoqda. Davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali iqtisodiy siyosati natijasida yuqori natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiyotning ichki va tashqi sektorlari mutanosibligini ta'minlash borasida:

– qattiq pul-kredit islohoti natijasida so'nggi 10 yil mobaynida yillik inflyatsiya darajasi 7-8 % atrofida saqlanib qolinmoqda;

– samarali byudjet-soliq siyosati natijasida so'nggi yillarda mamlakat byudjeti profitsit bilan yakunlanmoqda;

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish natijasida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va tashqi savdo aylanmasi ijobiy saldoni tashkil etmoqda.

Ichki omillar hisobidan iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida:

⁶² Бюджетнома 2020. 2021-2022 Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлигининг маълумотлари.

– mamlakatda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish natijasida so‘nggi 10 yilda respublikada YaIM hajmi o‘sish sur‘ati o‘rtacha 7,8 %ni tashkil etmoqda;

– ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, mahalliy ishlab chiqarishni rag‘batlantirish natijasida 2019 yilda umumiy eksport hajmining 76 %dan ortig‘ini tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash va keng qamrovli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish borasida:

– maqsadli xorijiy investitsiyalarini jalb etish, investorlarga qulayliklar yaratish, mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish orqali mamlakatda investitsiyalar hajmi oshishi natijasida yalpi mahsulot tarkibida sanoat mahsulotining ulushi 2019 yilda 26,6 %ni tashkil etdi;

– o‘rta sinfni rivojlantirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, kichik biznes va tadbirkorlarga imtiyoz va qulayliklar yaratilishi natijasida 2019 yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 62,3 %ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror, jadal va mutanosib ravishda rivojlantirish, asosiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini o‘stirishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlari, komplekslari va korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash asosida ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

– iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o‘ylangan uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish, shu asosda asosiy tarmoqlarni diversifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish;

– jahon bozorida doimiy xaridorgir bo‘lgan, qo‘shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish, korxonalarni keng miqyosda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni eng zamonaviy yuqori texnologik uskunalardan bilan jihozlash;

– iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy ilmiy yutuqlar va ilg‘or innovatsiya texnologiyalarini jadal tatbiq etish;

– korxonalarni mamlakatning barcha mintaqalarida joylashtirish va shu asosda import o‘rnini bosadigan mahsulotlarning hududlarda keng ishlab chiqarilishini ta‘minlash;

– mehnat unumdorligini o‘stirish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini izchil pasaytirish, energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

– mahalliy xom ashyoni chuqur va sifatli qayta ishlash negizida eksport salohiyatining barqaror o‘sib borishini, eksportga mo‘ljallangan raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va boshqalar.

Mazkur ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar iqtisodiy o'sishning "ajratib olingan shart-sharoitlari" bo'lmay, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini taqozo etuvchanligi - barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida ular amalga oshirishining muhim shartidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlashtirish (uslub) qoidalari asosida iqtisodiy o'sishning mazmuni, vazifalari va omillarini tizimli tushunish va tadqiq etish asosidagi umumlashgan talqini uning "doimiy tarzda o'sib boruvchi ijtimoiy ehtiyojlarni yanada to'liqroq qondirish maqsadida iqtisodiy resurslardan yanada samaraliroq foydalanish asosida tegishli davr mobaynida ijtimoiy ishlab chiqarishning hajmi va sharoitlarining miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishlarini ifoda etuvchi siyosiy-iqtisodiy kategoriya sifatidagi ifodasi" ekanligini ta'kidlashga imkon beradi.

Mazkur talqin iqtisodiy o'sishning ijtimoiy ehtiyojlarning o'sib borishi va uning qondirilishi darajasi o'rtasidagi ob'ektiv iqtisodiy ziddiyatning keskinlashuvi orqali ifodalanuvchi tabiatini to'liq ifodalaydi.⁶³ Iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarish darajasi miqdoriy ko'rsatkichlari o'zgarishiga, balki shu bilan birga ijtimoiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari (iqtisodiy o'sish sifati)ning ham o'zgarishiga olib keladi: aholi moddiy farovonligining o'sishi; bo'sh vaqtning ko'payishi; ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarning rivojlanishi; inson kapitaliga investitsiyalarning o'sishi; aholi mehnat sharoitlari va hayoti havfsizligini ta'minlash; ishsizlar va mehnatga layoqatsiz aholini ijtimoiy muhofazalash.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, vazifalari va omillarini tizimli tushunish va tadqiq etish ularga oid tushunchalar, munosabatlar, hossalalar va hususiyatlarning o'zaro bog'liqligini ochib berishga hamda bu bog'liqlikni mantiqan qurilgan tizim ko'rinishida ifoda etadi. Ushbu masalada davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning samarali vosita va qurollaridan foydalanish masalalarini ham kompleks tarzda tadqiq etish undagi soliq-byudjet amaliyotiga oid hossalalar va qonuniyatlarni chuqurroq, kengroq tushunishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Kamolov Maqsudjon Murodullo o'gli. Davlat xaridlarini tashkil etishda korrupsiyaga qarshi kurash. *Journal of Universal Science Research*, 2023/9/22
2. Samadov Ortiq, Muzaffarov Mukhammadjon. Analysis of the Participation of the Republic of Uzbekistan in the Processes of International Economic Integration. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 2023/5/13
3. Muhammadjon Muzaffarov. Davlat xaridlarini tashkil etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 2022/12/31

⁶³ Аллаяров С.Р. Целеориентированный подход к оценке эффективности фискальной политики, *Viznes-Эксперт* иқтисодий илмий-амалий ойлик нашр, 2020 йил № 4 (148)-сон

4. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li O'roqov Uchqun Yunusovich, Moyliyev Murod Baxtiyorovich. Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali. Science and education, 2022
5. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov
6. Muhammadjon Maxmud o'g'li Muzaffarov. BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH ORQALI KORXONA RESURSLARINI BOSHQARISH. Science and education, 2023/10/30
7. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINING O'RNI VA AHAMIYATI. World of Science, 2023/10/4
8. Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o'g'li, Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, Mavlonov Doston Mavlon o'g'li. БЮДЖЕТ СОЛИҚ СИЁСАТИ ОРҚАЛИ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2023/10/1
9. Mukhammadjon Muzaffarov. Projects formed on the basis of public opinion and financing them in Uzbekistan. World of Scientific news in Science Journal, 2023
10. Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g, O'sarov Javohir Bahodir o'g. AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING KORPORATIV MOLIYAVIY STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023/6/14
11. УА Артиков, НЕ Джиянова. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. ББК У. Ят31+ Ч34Я431 А 43
12. Ulug'bek Ortiqov, Ismoil Ismoilov, RAQAMLI IQTISODIYOTNI JORIY ETISH SHAROITIDA KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL ETISH. Наука и инновация, 2023/5/4
13. Ulug'bek Ortiqov, Yulduz Nasimova. RISKNI BARATARAF ETISHDA B2B BIZNES MODELINI QO'LLASH MEХАNIZMLARI. Наука и инновация, 2023/5/7
14. Улуғбек Ортиқов, Суннат Эсанбеков. КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚўЛЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 2023/5/7
15. Исроилова Мухаббат Рустамжон кизи Факторы развития реального сектора экономики и роль инвестиций в него. Golden Brain, 2023/12/25